

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 796 sahifa.

E'lom qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqqa investitsiya jozibadorligini oshirish	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmuddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizmda tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezoni.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakillantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvida xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Zarubежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati	121
Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar.....	125
Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari	131
Akobirova Nodira Najmiddin qizi	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari.....	135
Axmedova Nafisa Amirkuddin qizi	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry.....	140
Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.....	144
Bobomuratov Imomqul Islamovich	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili.....	149
Talipova Dilfuza Nabiyevna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	154
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue	158
Meyliev O. R., Gofurova K.	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	166
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan.....	170
Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti	174
Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	178
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish	183
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi.....	188
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari	194
Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish.....	200
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar	214
Musaeva Ziyoda Allayarovna	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari	218
Musyeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari.....	223
Akramova Nargiza Axrорovna	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari.....	227
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari	231
Nazarova Latofat Toirjon qizi	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	235
Nurmuxammedov Matlab Yunusovich	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угули, Искандаров Суннатилло Баҳриддин угули	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'lilda boshqaruvin strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlilikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish.....	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibrildi bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rino	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyavi hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditni natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari	373
Mamatov Mamajan Axmadijonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari	386
Musyeva Shoira Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellektual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari.....	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане	437
Аскаров Бахтиер Аскарович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyeva	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini molijalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Aadaptivnyi iisкусstvennyi intellekt v upravlenii chelovecheskimi resursami.....	469
Хайдарова Малика Шоқирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljalangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida.....	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariiga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlari	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	504
Avazov Ilhom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish.....	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	513
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarни moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari.....	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.....	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatçiligin samarali tashkil etish yo'llari	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari.....	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari.....	550
Umarova Hulkar Umidulloevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari.....	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
"Зелёная экономика" как фактор повышения экономического роста страны.....	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi.....	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari.....	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari	598
Alimbayeva Sevara Alimbayeva	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ułomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatoev Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlanirish yo'llari	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Zagryaznenie okruжающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlanirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari	670
Turdiev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi	686
Urumbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsubbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasreddinov	



Xalqaro migrantsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
<i>Tilabova Kumush Farhod qizi</i>	
ANALIZ I OZENKA EESTSTVENNOGO OSVEЩENIJA POMEЩENIIJ OBRAZOVATEL'NYX UCHREЖDENIJ.....	714
<i>Pirmuhamedova Shaxniza</i>	
Akтуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан....	719
<i>Ruziboeva Nilufar Tulkin kizi</i>	
Metodicheskie podkhody k formirovaniyu mechanizmov strategicheskogo upravleniya razvitiem khimicheskoy otрасli.....	725
<i>Bibutova Shaхlo Sa'ydullaeva</i>	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning afzalliklari va muammolari	730
<i>Axmedova Dilbar Buronovna</i>	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'lijni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
<i>Ishmanova Diana Nurmamadovna</i>	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari	737
<i>Muxtorova Madina Azamat qizi</i>	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar	741
<i>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</i>	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari	746
<i>Yodgorova Xalima To'lqinovna</i>	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
<i>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna</i>	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
<i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna</i>	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
<i>Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna</i>	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni	778
<i>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</i>	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
<i>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li</i>	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri	790
<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi</i>	



МАМАЛАКАТИМIZGA ХОРИJИЙ INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA QIMMATLI QOG'ÖZLAR BOZORINING O'RNI VA ROLI

Akramov Azamat Ramziddinovich

PhD, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
G'aznachilik xizmati qo'mitasi Boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Annotatsiya: Maqloda mamalakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, mamalakatimizda qimmatli qog'ozlar bozoriga kiritilgan xorijiy investitsiyalar tahlili amalga oshirilgan, mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiyalar portfelini samarali boshqarishni takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy investitsiya, qimmatli qog'ozlar bozori, aksiya, asosiy kapital, korporativ obligatsiya, investitsiya portfeli.

Abstract: The article examines the opinions of the world's leading scientists on the role of the stock market in attracting foreign investments to our country, analyzes foreign investments in our country's stock market, and provides a justified conclusion on improving the effective management of the investment portfolio in our country's stock market. and proposals were developed, and recommendations for application in our country were given.

Key words: Foreign investment, stock market, stock, equity, corporate bond, investment portfolio.

Аннотация: В статье рассмотрены мнения ведущих ученых мира о роли и роли фондового рынка в привлечении иностранных инвестиций в нашу страну, проанализированы иностранные инвестиции на фондовом рынке нашей страны, а также сделан обоснованный вывод о совершенствовании эффективного управления инвестиционным портфелем. на фондовом рынке нашей страны, разработаны предложения и даны рекомендации для применения в нашей стране.

Ключевые слова: Иностранные инвестиции, фондовый рынок, акции, акции, корпоративные облигации, инвестиционный портфель.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning yuqoriligi bilan bog'liq eng muhim ko'rsatkichlar, jumladan, (qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar turlarining ko'pligi va likvidlilikning yuqoriligi, aksiyadorlik jamiyat (AJ)larida yuqori dividend siyosati, birja savdo tizimlarining takomillashganligi) qimmatli qog'ozlar bozorining yuqori darajada rivojlanganligi, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori kapitalizatsiyasining yalpi ichki mahsulot (Yalm) hajmiga nisbatan ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi. "Qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmasi Yalm hajmiga nisbatan xorijiy mamlakatlardan Gonkongda 1200 foizni, Singapurda 188 foizni, AQSHda 149 foizni, Yaponiyada 127 foizni, Malayziyada 112 foizni, Janubiy Koreyada 87 foizni, Xitoyda 46 foizni, Rossiyada 34 foizni, Qozog'istonda 22 foizni, Turkiyada 19 foizni, global ko'rsatkich esa 93 foizni tashkil etadi"^{1 [1]}. Jahon mamlakatlarida fond bozorlari turli darajada rivojlangan bo'lib, makroiqtisodiy rejalar ishlab chiqish va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, jumladan, xorijiy kapital oqimlari va aholi jamg'arma mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb qilishda muhim vositalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida barcha sohalarda keskin raqobat muhiti humronlik qilmoqda. Bunday sharoitda mamlakatimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish talab etiladi va bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish real

1 Jahon birjalarini federatsiyasi ma'lumotlari (2019). <http://www.world-exchanges.org>.



sektor va moliyaviy sektoring o'zaro uyg'un tarzda rivojlantirishni taqozo etadi. Bunda iqtisodiyotning real sektori rivoji, umuman biznes taraqqiyoti ko'p jihatdan moliya bozori, xususan, uning tarkibiy qismi hisoblangan kapital bozori faoliyati bilan bevosita bog'liq. Doimiy o'sish va yangi loyihalarni o'zlashtirish orqali faoliyatni kengaytirish mutazamlik kasb etayotgan bir vaqtida biznesni moliyalashtirishning samarali tashkil etilishi qimmatli qog'ozlar bozori holatiga ham bog'liq.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida qimmatli qog'ozlar bozori orqali xorijiy investitsiyalarni jaib etish amaliyoti tahlili yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'ldik, ular quydagilardan iboratdir. Ulardan B.Rubsov tomonidan zamonaviy fond bozorlari tadqiq qilingan bo'lib, rivojlangan va rivojlanayotgan fond bozorlarining rivojlanish xususiyatlari, ularda qo'llanilayotgan qimmatli qog'ozlar turlari atroficha o'rganilganligini qayd etib o'tish mumkin^[3].

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish masalalari U.Xoliqov tomonidan tadqiq qilingan^[4]. Qimmatli qog'ozlar bozori aktivlarini baho-lash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan masalalar X.Xudoyqulov tomonidan tadqiq qilingan^[5].

A.Xo'jamurodov tomonidan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini takomillashtirish yo'nalishlariga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan^[6].

B.B.Rubsov shunday yozadi, "Moliya bozori – bu iqtisodiy munosabatlar va pul kapitalining harakati bilan bog'liq institutlarning yig'indisi. Moliya bozorida pul kapitalining harakati qiymati bozor sharoitlari bilan belgilanadigan vositalar yordamida sodir bo'lganligi sababli, kapital bozorining xususiyatlari moliya bozoriga xosdir. Kapital bozori va moliyaviy bozor iqtisodiy munosabatlar subyektlarini afzal ko'radi. Ushbu bozorlarda iqtisodiy agentlar uchun imtiyozlar turli xil vositalardir"^[7].

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi davrida ham bevosita qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini oshirishga doir tadqiqotlarni amalga oshirishni islohotlar yo'nalishlari ko'rsatib turibdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qimmatli qog'ozlar bozori orqali xorijiy investitsiyalarni jaib etish amaliyoti tahlili bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrslash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Qimmatli qog'ozlar bozori – moliya bozorining qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan sohasi. Qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy vazifasi: xorijiy investitsiyalarni, ya'ni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika ravnaqiga zarur xorijiy investitsiya mablag'larini to'plash hamda taqsimlash; qimmatli qog'ozlar paketlaridan foydalangan hoddha mulk egaligini o'zgartirish; qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi yo'li bilan bozorni qayta taqsimlash; qimmatli qog'ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish va boshqalar kiradi^[8].

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha chiqarish ustuvor maqsad hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozori – bank sektori rivojining muhim omili bo'lib, samarali qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Aynan qimmatli qog'ozlar bozorini kuchaytirish istiqbolda tijorat banklari faoliyati rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit va fond bozorlari o'rtasida keskin raqobat yuzaga kelishi har ikkala sohaning raqobatda ustunlikka intilishi orqali rivojlanishni ta'minlaydi. Bundan esa milliy ishlab chiqaruvchi, kapital zarur bo'lgan tomon arzon kapital jaib qilish imkoniga ega bo'ladi. Shu bois, iqtisodiyotni moliyalashtirish nuqtayi nazaridan moliya bozorining birja modelini tanlagan mamlakatlarda bank tizimi ham yuqori darajada rivojlangan. Yoki, aksincha, iqtisodiyotni bank vositasida moliyalashtiruvchi mamlakatlarda ham fond birjalari to'liq raqobatchi sifatida rivojlanganini ko'rish mumkin.

Yurtimizda ayni vaqtida iqtisodiyotda davlat ishtiroti yuqoriligi emitentlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish va xususiyashtirishni yanada chuqurlashtirish asosiy maqsadlardan biridir. Qayd etish kerakki, strategik ahamiyatga ega korxonalarini aniq belgilagan holda ularda davlat ishtirotini saqlab qolish lozim. Shuningdek, yuqori rentabelli davlat




ishtirokidagi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish va ulardagi davlat aksiya paketini qimmatli qog'ozlar bozoriga olib chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur amaliyotda (bitta aksiya bitta lot tartibida) aksiyalar soni bo'yicha sotib olish mumkin bo'lgan yuqori chegarani belgilash orqali ommaviy savdolar tashkil etish keng miqyosda aholining ham qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilinishiga imkon beradi.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIGA KIRITILGAN XORIJY INVESTITSIYALAR



QIMMATLI QOG'OZLAR
MARKAZIY DEPOZITARIYI

01.12.2023



1-rasm: Qimmatli qog'ozlar bozoriga kiritilgan xorijiy investitsiyalar^{2 [10]}

2023-yil 1-dekabr holatida O'zbekiston emitentlarining aksiyalariga egalik qiladigan xorijiy investorlarning umumiyo soni 3 675 tani yoki umumiyo aksiyadorlar sonining 0,4 foizini, xorijiy investorlar ishtirokidagi emitentlarning umumiyo soni esa 323 tani yoki umumiyo emitentlar sonining 52,0 foizini tashkil etgan.

Xorijiy aksiyadorlarning umumiyo portfeli 8,0 trln. so'mni yoki umumiyo emissiya hajmining 4,2 foizini tashkil qilgan.

O'zbekiston emitentlarining aksiyalariga eng yirik sarmoya kiritish bo'yicha yetakchilik Vengriya (27,7 %), Qozog'iston (14,8 %) va Buyuk Britaniya (13,9 %) investorlariga tegishli hisoblanadi.

Huquqiy maqomlar kesimi bo'yicha yuridik shaxslar eng yirik ulushga egalik qiladi – 7,91 trln. so'm yoki 99,4%. Mamlakatning ma'muriy bo'linishi kesimi bo'yicha eng yirik ulush Toshkent shahriga to'g'ri keldi – 6,09 trln. so'm yoki 76,6% ga to'g'ri kelmoqda.

Shu davorda O'zbekiston emitentlarining korporativ obligatsiyalariga egalik qiladigan xorijiy investorlar soni 34 tani yoki umumiy obligatsiya egalari sonining 8,4 foizini, xorijiy investorlar ishtirokidagi emitentlar soni esa 8 tani yoki obligatsiya chiqqargan umumiyo emitentlar sonining 25,8 foizini tashkil qilgan.

Xorijiy korporativ obligatsiya egalarining umumiyo portfeli 25,5 mlrd.so'mni yoki umumiyo obligatsiya chiqarilishi hajmining 2,5 foizini tashkil etgan.

Shu bilan birga, mamlakatga mansubligi bo'yicha ushbu portfel to'rt mamlakat investorlari o'rtasida taqsimlangan: Qozog'iston (92,4%), Rossiya (3,9%), Shveysariya (3,8%) va Tojikiston (0,004%).

Huquqiy maqomi bo'yicha eng yirik ulush yuridik shaxslarga to'g'ri keldi – 21,2 mlrd.so'm yoki 83,0 foiz.

Ma'muriy bo'linish bo'yicha eng yirik ulushlar: Toshkent viloyatiga – 23,38 mlrd. so'm yoki 91,6 foiz, Toshkent shahriga – 2,11 mlrd. so'm yoki 8,3 foiz va Andijon viloyatiga – 0,04 mlrd. so'm yoki 0,2 foiz to'g'ri kelgan.


² Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. <https://uzcsd.uz/>



ULUSH HAJMI BO'YICHA AKSIYA EGALARI TUZILMASI, mlrd. so'm

4
29.12.2023

QIMMATLI QOG'ÖZLAR
MARKAZIY DEPOZITARIYSI



2-rasm: 2023-yil yakunlari bo'yicha aksiyalarning ulush hajmi bo'yicha tuzulmasi³ [10]

Hafta yakunlariga, ya'ni 2023-yil 29-dekabrdagi holatga ko'ra, Ajlarning umumiy soni 625 ni tashkil etgan. Aksiya chiqarilishlarining umumiy hajmi esa 189 834,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Shuningdek, 239 AJ ustav fondidagi davlat ulushi 158 340,3 mlrd. so'mni yoki 83,4 foizni tashkil qilgan. Shu davrda, aksiya chiqarilishlarining umumiy soni 2 108 tani, korporativ obligatsiya chiqarilishlarining umumiy soni esa 41 tani tashkil etgan.

Aksiya chiqarilishlarining umumiy hajmi 189 834,6 mlrd. so'mni, korporativ obligatsiya chiqarilishlarining umumiy hajmi esa 1 063,4 mlrd. so'mni hosil qilgan.

Markaziy depozitariyda hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlar

QIMMATLI QOG'ÖZLAR
MARKAZIY DEPOZITARIYSI

	01.01.2024	BARCHA QIMMATLI QOG'ÖZLAR	AKSIYALAR	KORPORATIV OBLIGATSİYALAR
	QIMMATLI QOG'ÖZLAR EMİTENTLARI	AJ, MCHJ	AJ	AJ, MCHJ
	JAMI EMİTENTLAR	651	625	33
	JAMI CHIQARILISHLAR	2 149	2 108	41
	CHIQARILISHLARNING UMUMIY HAJMI (mlrd. so'm)	190 772,5	189 709,1	1 063,4
	QIMMATLI QOG'ÖZLARNING JOYLASHUVI (mlrd. so'm)			
	► EGALARNING DEPO HISOBVARAQLARIDA	187 846,5 (98%)	186 902,8 (99%)	943,7 (89%)
	► EMİTENTNING DEPO HISOBVARAG'IDA	2 926,0 (2%)	2 806,3 (1%)	119,7 (11%)

MA'LUMOT UCHUN
Qimmatli qog'ozlar - hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlami chiqargan yuridik shaxs bilan ulaming egasi o'tasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlari ni tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarida darslanadi va qarz hamda ushu hujjatdan kelib chiqadigan urogullarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.
Emisyonchilik qimmatli qog'ozlar - bitta chiqarilishdorsida bir xil belgilari va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlasosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar.
Aksiya - o'z egasining aksiyadorlik jamiatini foydasining bir qismini dividendlar tarzida olisha, aksiyadorlik jamiatining boshqarishda ihtirok etishga va u tugatiliganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz
Korporativ obligatsiyalar - aksiyadorlik jamiatlar, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar
Emitters emisyonchilik qimmatli qog'ozlar - qarvuchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egali oldida majburiyatlar bo'lgan yuridik shaxs
Aksiya emisyonchilik qimmatli qog'ozlar - aksiyadorlik jamiatlar
Korporativ obligatsiyalar - aksiyadorlik jamiatlar, mas'uliyati cheklangan jamiatlar
Qimmatli qog'ozlar emissiyasi - emissiyaviy qimmatli qog'ozlari chiqarish va joylashtirish
Qimmatli qog'ozlarning joylashtirish - qimmatli qog'ozlarning ularning dastlabki egalari
Depo hisobvaragi - deponentning qimmatli qog'ozlarini saqlash va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlami hisobga olish uchun mo'ljalangan, investitsiya vositalchisining va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi
Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi - depo hisobvaragani bo'yicha emissiyeviy qimmatli qog'ozlami saqlashning, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakatining yagona tizimini tel minlovchi davlat depozitariysi.

3-rasm: 2023-yil yakunlari bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorining yakuniy hisobi⁴ [10]

3 Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. <https://uzcsd.uz/>

4 Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. <https://uzcsd.uz/>




2024-yil 1-yanvar holatida Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida jami 651 ta emitent: 625 ta aksiyadorlik jamiyati va 26 ta MChJ tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar hisobi yuritilmoxda.

625 ta emitentning aksiya chiqarilishlari soni 2 108 tani, umumiy emissiya hajmi esa 189 709,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. 33 ta emitentning korporativ obligatsiya chiqarilishlari soni esa 41 tani, umumiy emissiya hajmi esa 1 063,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Egalarning Markaziy depozitariydagи depo hisobvaraqlarida hisobi yuritiladigan aksiyalar hajmi 186 902,8 mlrd. so'm yoki 99 foizni, korporativ obligatsiyalar bo'yicha esa – 943,7 mlrd. so'm yoki 89 foizni tashkil etdi.

Emitent hisobvarag'ida hisobi yuritiladigan aksiyalar hajmi 2 806,3 mlrd. so'mni yoki 1 foizni tashkil etdi, korporativ obligatsiyalar hajmi esa 119,7 mlrd. so'mni yoki 11 foizni tashkil qildi.



4-rasm: Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha bitimlar soni va hajmi⁵ [11]

2023-yilning 9 oyi davomida iqtisodiyotning 10 ta tarmog'idagi AJ va MChJ qimmatli qog'ozlari oldi-sotdisi amalga oshirilib, ulardan banklar sohasiga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlar eng ko'p sotilgan va ular bilan 136 548 ta bitim tuzilgan, bu 2022-yilning shu davrdagi ko'satkichidan 8 barobar ko'pdir. Bundan tashqari, 2023-yilning 9 oyi davomida bank, sanoat va sug'urta sohalaridagi emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar soni umumiy bitimlarning 76,96 foizdan ortig'i tashkil etdi.

Mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiyalar portfelini samarali boshqarishni takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Portfel diversifikatsiyasi evaziga investitsiya riskini pasaytirish. Korporativ investorlar faoliyatining jahon tajribasida investorlar iqtisodiyotning turli xil tarmog'iga tegishli korxonalar aksiyalariga egalik qilib, investitsiya riskini pasaytirishadi. O'zbekistonda qo'yilmalarni diversifikatsyalashning mushkul tomoni shundaki, umuman olganda aksiyalar bozori nolikvid hisoblanadi, ya'ni aksiyalarga ommaviy talab va taklifning yo'qligi.
2. Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoridagi faolligini, jumladan, aksiyalar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari hajmini oshirish maqsadida savdolar tizimini hamda savdolarni uzuksiz aukcion usulida olib borish, bir vaqtning o'zida pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni bir mijozdan ikkinchisiga o'tkazish imkonini beradigan elektron dasturini yaratish.
3. Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoridagi faolligini, jumladan, aksiyalar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari hajmini oshirish maqsadida savdolar tizimini hamda savdolarni uzuksiz aukcion usulida olib borish, bir vaqtning o'zida pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni bir mijozdan ikkinchisiga o'tkazish imkonini beradigan elektron dasturini yaratish.
4. Investitsiya portfeli monitoringini yanada takomillashtirish uchun uzoq muddatli va optimal daromad keltiruvchi instrumentlarni muomalaga kiritish lozim.
5. Birja savdolarida sotiladigan moliyaviy instrumentlar sonini ko'paytirish, ya'ni moliyaviy fyuchers, opson, depozitar tilxatlar va ipoteka obligatsiyalarini joriy etish. Bu holat qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning faollashuviga va qimmatli qog'ozlar bozori aylanmasining oshishiga olib keladi.

5 "Toshkent" Respublika fond birjasi AJning malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



6. Investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida investitsiya risklari ta'sirida ko'riliishi mumkin zararlarni sug'urtalash tizimini joriy etish. Bunday holat investorlarni, jumladan xorijiy investorlarini dadil ravishda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishiga turki bo'ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizdan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish tamoyillari orqali investitsiyalar portfelini boshqarish yuqorida aytib o'tilgan ayrim omillarga ham bog'liq ekanligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda kapital bozorini yanada rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va qimmatli qog'ozlar bozori likvidligini oshirishni rag'batlantirish bilan bog'liq o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar va kamchiliklar mavjud, jumladan⁶ [9]:

- kapital bozorini rivojlantirish sohasida davlatning strategik rejalashtirish tizimi mavjud emas;
- erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning mamlakat YaIM hajmiga nisbatan ulushi past (0,41 foiz);
- qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshirilayotgan bitimlarning yuqori qismi (birjadagi hajmlarning 70 foizidan ortig'i) davlat ishtirokida korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda;
- qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligi past, davlat qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorini rivojlantirish zaruriyati mavjud, amaliyotga joriy etilgan moliyaviy mahsulotlar turlari yetarli emas, davlat aksiya paketlari "bitta aksiya bitta lot" tamoyili asosida sotilishi sust va xo'jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog'ozlar bozorida mablag' jalb qilishga bo'lgan qiziqishi past;
- bozor infratuzilmasi zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimlari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan, shuningdek, ushbu sohada mahalliy tizimlarning imkoniyatlaridan samarasiz foydalanimoqda;
- mintaqaviy darajada kapital bozori infratuzilmasi mutlaqo rivojlanmagan;
- kapital bozori sohasida bozor kapitallashuvini oshirish choralarini faol ravishda ilgari surish va amalga oshirishga imkon beradigan yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi;
- sohani nomutanosib tartibga solishni nazarda tutuvchi hamda zamonaviy bozor talablariga va xalqaro standartlarga javob bermaydigan huquqiy hujjatlar ko'p;
- korporativ munosabatlar zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilmagan.

Hozirgi kunda O'zbekiston kapital bozori hajmining YaIMga nisbati ko'rsatkichi sezilarli darajada past ekanligi (1 foizga ham yetmaydi), bir tomonidan, bu sohani isloh qilish naqadar dolzarbigini ko'rsatsa, ikkinchi tomonidan, milliy iqtisodiyotni barqaror sur'atlarda o'sishini rag'batlantirish uchun foydalanimagan salohiyat yuqori ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda mamlakatimizda shakllanib borayotgan qimmatli qog'ozlar bozori salohiyatidan ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishning ishonchli vositasiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada quyidagicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi muhimdir:

- tijorat banklari tomonidan obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni muomalaga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni yanada soddalashtirish va ularning emitentlar hamda investorlar uchun jozibadorligini oshirish;
- chaqirib olinmaydigan depozit sertifikatlari muomalasini yo'lga qo'yishni tashkillashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash;
- Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalariga muvofiq bank kapitali tarkibida barqaror elementlar, ya'ni oddiy aksiyalar salmog'ini ko'paytirish;
- qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini faollashtirish, subordinar qarzning hajmlarini kengaytirish.

Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, xorijiy investorlar tomonidan investitsiya kiritiladigan maqsadli mamlakatni aniqlashda mazkur mamlakatdagи boshqaruv sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, korporativ boshqaruv sifati yuqori bo'lgan mamlakat investorlari investitsiya kiritishda boshqaruv sifatiga hal qiluvchi omil sifatida qaraydi. Ayni paytda, korporativ boshqaruv rivojlanmagan davlat investorlari uchun investitsiya kiritish maqsad qilingan davlatdagi korporativ boshqaruv darajasi ahamiyatsiz bo'lishi ham mumkin.

⁶ Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirish departamentini. https://www.mf.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=849

**Foydalanilgan dabiyotlar:**

1. Jahon birjalari federatsiyasi ma'lumotlari. <http://www.world-exchanges.org>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
3. Б.Рубцов. Современные фондовые рынки. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 926 с.
4. Xalikov U. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. – Т.: BMA, 2017.
5. Xudoyqulov X. Fond bozori aktivlarini baholash mexanizmini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. – Т.: BMA, 2018.
6. Xo'jamurodov A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. – Т.: BMA, 2019.
7. Рубцов Б.Б. Глобальные финансовые рынки: масштабы, структура, регулирование // Век глобализации. – №2 (8). – 2011. – С.73-98.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fond_bozori
9. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirish departamentini.https://www.mf.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=849
10. <https://uzcsd.uz/> Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi rasmiy sayti.
11. "Toshkent" Respublika fond birjasi rasmiy sayti <https://uzse.uz/boards/3573?locale=uz>.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

